

TEXNIKAVIY FANLARNI O’QITISH SAMARASINI OSHIRISH YO’LLARI

Niyozova Bibiniso Boltayevna

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti dekan o‘rinbosari

Aralova Minavvar Nomoz qizi

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Annotatsiya: Talabani o‘rganishga qiziqtirish uchun o‘zlashtirish bo‘yicha natijalari to‘g‘risida xabardor qilib borilsa va shaxsiy maqsadlar bilan moslashtirilsa, ularda qiziqish oshib boradi. Talabanning o‘quv predmeti bilan faol tarzda shug‘ullanishi yuzaga kelganda o‘quv jarayoni rivojlanadi, chunki talabada birlamchi va ikkilamchi motivlar yuzaga keladi. Talabanning o‘zlashtirishda erishgan natijalarga mos maqto‘v va tan olish so‘zlarini aytish uning qiziqishini uyg‘otishda ijobiy ta‘sirga ega.

Kalit so‘zlar: Dars, o‘rganish, pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, o‘quv jarayoni, texnologik xarita.

Аннотация: Интерес учащихся возрастает, когда результаты обучения доводятся до сведения и согласуются с личными целями, чтобы вовлечь учащихся в обучение. Процесс обучения развивается при активном занятии учащегося предметом, поскольку у учащегося возникают первичные и вторичные мотивации. Произнесение слов похвалы и признания, соответствующих результатам обучения ученика, положительно влияет на возбуждение его интереса.

Ключевые слова: урок, обучение, педагогика, психология, специальная методика, учебный процесс, технологическая карта.

Abstract: Student interest increases when learning outcomes are communicated and aligned with personal goals to engage students in learning. The learning process develops when the student is actively engaged in the subject, because primary and secondary motivations arise in the student. Saying words of praise and recognition appropriate to the student's learning results has a positive effect on arousing his interest.

Key words: lesson, learning, pedagogy, psychology, special methodology, educational process, technological map.

Ilmiy tadqiqotlar insonlarning tinch muhitda yaxshiroq va yengilroq o‘rganishlari mumkinligini ko‘rsatadi. Nafaqat ijobiy emosional va ijtimoiy muhit, balki maqsadga muvofiq tarzda jihozlanganligi, faol bo‘la olish imkoniyatlarining borligi shular jumlasiga kiradi. O‘rganish jarayonining iloji boricha talabalarga qaratish uchun

o‘rganish predmeti talabalar ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bu holat ularda o‘z kuchlariga ishonchlarini va o‘zlariga qo‘yilgan talab darajalarini yuksaltiradi.

O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilishi va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o‘qituvchi uchun bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi kata ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzildi. Texnologik xaritani tuzish oson ish emas, chunki buning uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogika va axborot texnologiyalardan xabardor bo‘lishi, shuningdek, juda ko‘p uslub va usullarni bilishi kerak. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog‘liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko‘rinish (yoki shakl)da tuzish, bu o‘qituvchining tajribasi, qo‘ygan maqsadi va ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jaroyoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o‘qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatining barcha qirralari o‘z aksini topadi.

O‘qituvchi o‘qitilayotgan fanining har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzgan texnologik xaritasi, unga fanni yaxlit holda tasavvur etib yondashishiga, tushunishiga, yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko‘ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik xaritaning talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta’limning markaziga olib chiqishga va bu bilan o‘qitishning samaradorligini oshirishga imkoniyat beradi.

Texnikaviy fanlarni o‘qitish jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan talabaning dastlabki bilimlari yetarli emasligi, qiziqshi yo‘qligi, muammolarni yechish murakkabligi yoki topshiriqning qiyinligi no‘lishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni o‘quv maqsadiga qaratilgan yordamchi o‘quv usullari orqali bartaraf etish mumkin.

Bularga quyidagilar kiradi:

- o‘quv qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan yordamlar;
- yechimini topishga qaratilgan yordamlar;
- ishlash va amalga oshirishga qaratilgan yordamlar;
- takrorlash va mashqlar qilishga qaratilgan yordamlar;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni berish va yangi vaziyatlarda qo‘llashga qaratilgan yordamlar.

O‘quv materialining tuzilmasi qancha yaxshi tuzilgan hamda u qancha qonuniyatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, bilimlarni shuncha yaxshi eslab qolinadi.

O‘tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarga asoslanib fanlarni samarali o‘rganish bo‘yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin.

- O‘rganish kichik qadamlar, ya’ni bosqichma-bosqich o‘tkazilishi kerak va har doim dastlabki bilimlarga asoslanishi lozim.

- Bundan tashqari, o‘rganish rag‘batlantirilishi kerak, masalan, tan olish bilan muvaffaqiyatli o‘rganish va uni davom etishni rag‘batlantirish kerak (maqtov orqali).

- Talabalar o‘zlarining o‘rganishdagi yutuqlari haqida xabardor bo‘lsalar, qiziqtirish kuchaytiradi.

- Talabalar “mustaqil faol bo‘lish” prinsipi bo‘yicha o‘rganishadi. O‘rganishning faol davrlarni tashkil qilish kerak.

- O‘rganish o‘tayotgan davrda ko‘pgina qulay holatlarni qo‘llash, o‘quv vaziyatlarini o‘zlashtirib turishi kerak.

- Talabalar ko‘p faol bo‘lib o‘rganilsa, o‘zlashtirish davomi va muvaffaqiyatli bo‘ladi. O‘rganishning faollatiruvchi usullaridan foydalanish va guruhviy o‘rganishni o‘tkazish kerak.

- O‘quv jarayonida yordamchi usullarni qo‘llash orqali o‘rganish samarasini oshirish mumkin.

O‘quv jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo‘llanilishi, talabalarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib boorish, tahdid qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini, shuningdek, pedagogga nisbatan hurmatini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28-sentyabrdagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5099 sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151 sonli Qarori
3. Mavlonova R, To‘raeva O., Pedagogika. Darslik. –T.: «O‘qituvchi», 2001.
4. Munavvarov A.Q. tahriri ostida. Pedagogika. T: «O‘qituvchi», 1996 y.
5. Djumaboeva F. Talabalarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: «O‘qituvchi», 2002 y.
6. Xo‘jaev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. T., 2004.